

SOVET “MADANIY INQILOB” SIYOSATINING
O‘ZBEK TEATR SAN‘ATIGA TA‘SIRI (1920–1930-yillar)

S.Nazarova

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
Madaniyatshunoslik bo‘limi mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Maqolada sovet hokimiyati davrida amalga oshirilgan “madaniy inqilob” siyosati doirasida O‘zbekistonda teatr va sahna san‘atining rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, 1920–1930-yillarda madaniyat va san‘at sohasini mafkuraviy jihatdan nazorat qilish, teatr repertuarlarini siyosiy maqsadlarga mos ravishda shakllantirish, ijodkorlar faoliyatini partiyaviylik prinsiplari asosida boshqarish masalalari yoritiladi. Shuningdek, arxiv manbalari asosida teatr jamoalarining tashkiliy tuzilishi, moddiy ahvoli, repertuar siyosati hamda teatrlarning jamiyatdagi targ‘ibot-tashviqot vazifalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sovet madaniy siyosati milliy teatr san‘ati taraqqiyotiga bir vaqtning o‘zida ham ta‘sir ko‘rsatgani, hamda uni mafkuraviy qoliplarga solganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy inqilob, sovet madaniy siyosati, o‘zbek teatri, sahna san‘ati, repertuar siyosati, mafkuraviy nazorat.*

Аннотация: *В статье анализируются процессы развития театрального и сценического искусства в Узбекистане в рамках политики «культурной революции», проводимой в период советской власти. В частности, рассматриваются вопросы идеологического контроля над сферой культуры и искусства в 1920–1930-е годы, формирования театрального репертуара в соответствии с политическими целями, а также управления деятельностью творческих работников на основе принципов партийности. Кроме того, на основе архивных источников исследуются организационная структура театральных коллективов, их материальное положение, репертуарная политика, а также агитационно-пропагандистские функции театров в обществе. Результаты исследования показывают, что советская культурная политика одновременно способствовала развитию национального театрального искусства и в то же время подчиняла его жёстким идеологическим рамкам.*

Ключевые слова: *культурная революция, советская культурная политика, узбекский театр, сценическое искусство, репертуарная политика, идеологический контроль.*

Annotation: *This article analyzes the development of theater and performing arts in Uzbekistan within the framework of the “cultural revolution” policy implemented during the Soviet period. In particular, it examines the ideological control over the sphere of culture and arts in the 1920s–1930s, the formation of theater repertoires in accordance with political objectives, and the management of creative activities based on the principles of party loyalty. In addition, based on*

archival sources, the study explores the organizational structure of theater troupes, their financial conditions, repertoire policy, and the propaganda and educational functions of theaters in society. The results of the study demonstrate that Soviet cultural policy simultaneously influenced the development of national theatrical art while also shaping it within rigid ideological frameworks.

Keywords: *cultural revolution, Soviet cultural policy, Uzbek theater, performing arts, repertoire policy, ideological control.*

XX asrning 20–30-yillari O‘zbekiston madaniy hayotida keskin siyosiy va mafkuraviy o‘zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan “madaniy inqilob” siyosati jamiyat hayotining barcha sohalari qatorida madaniyat va san’atni ham o‘z ta’siri doirasiga oldi. Bu siyosatning asosiy maqsadi xalqlarni milliy, ma’naviy va tarixiy ildizlaridan uzoqlashtirish, ularni yagona internatsional sotsialistik mafkura asosida tarbiyalashdan iborat edi. Shu sababli milliy an’analar, urf-odatlar va qadriyatlar o‘rniga yangi sovet madaniyati shakllarini joriy etishga katta e’tibor qaratildi.

Bolsheviklar “Madaniy inqilob” siyosatining bosh maqsadi – xalqlarni milliy, ma’naviy va tarixiy ildizlaridan uzoqlashtirish evaziga mamlakatdagi barcha aholini yagona internatsional mafkuraga bo‘ysundirish, millatlarning o‘ziga xos urf-odatlarini, qadriyatlarini o‘rniga yangi sovet an’analarini va marosimlarini joriy etish chora-tadbirlaridan iborat bo‘ldi⁸. Madaniy inqilob – “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat” shiori sovet davlatining milliy respublikalaridagi asosiy g‘oyalaridan bo‘lib keldi. Partiya madaniyat sohasidan ma’muriy-buyruqbozlik asosida o‘z siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda foydalandi. Partiyaviylik prinsipiga amal qilmagan, uning nazoratidan chiqishga harakat qilgan madaniyat qoralanib, ta’qib qilindi.

1920-yillarning boshlarida madaniyat, jumladan, san’at sohasida biroz erkinlik kuzatilgan bo‘lsa, 1920-yillarning ikkinchi yarmidan vaziyat o‘zgarib bordi. Ayniqsa RKP (b) Markaziy Qo‘mitasining 1925-yil 18-iyundagi qaroridan keyin “proletar madaniyati”, “proletar adabiyotining gegemonligi” uchun kurash qizg‘in tus oldi. Buning oqibatida ijod sohasidagi har qanday erkinlik qolipga solindi. “Mafkuraviy sog‘lomlik uchun”, “Yot mafkuralarga qarshi kurash” shiori ostida madaniyat va san’atdagi har bir mustaqil kuch, iste’dod egasi shafqatsiz tazyiq ostiga olinib boshladi⁹.

VKP(b)ning 1925-yilda o‘tkazilgan XIV syezdida partiyadagi chaqimchilar (donoschi) faoliyatini cheklash masalasi ko‘tariladi. Shu vaqtning o‘zidayoq siyosiy byuroda ma’lum bir ta’sirga ega bo‘lgan Shikryatov bunga darhol zarba berib, “Bu ma’lumot tashish emas, balki har bir partiya

⁸ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 1-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 339.

⁹ Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистон маданияти ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. – Тошкент, 2017. – Б. 135.

a'zosining vazifasi bo'lmog'i kerak"¹⁰, – deb aytgan edi. Bu jarayon 1920-yillarning oxiri – 1930-yillardagi sovet qatag'on siyosatining bosh mezoniga aylandi.

1926-yil may oyida O'zbekiston SSR xalq ta'limi bo'limining ikkinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi. Yig'ilishda "O'zbekiston SSRda xalq ta'limi tizimi" mavzusidagi tezis tinglanadi. Ayniqsa badiiy ta'limni teatrlarning inqilobiy targ'ibot ishlariga xizmat qilishga yo'naltirish, Politprosvet tizimida san'at ishlarini yo'lga qo'yish va rahbarlik qilishni ushbu yo'nalishga bo'ysundirish hamda shu asosda ishlarni tashkil etish zarurligi belgilandi¹¹. Tezis mohiyatidan sovet hokimiyati sahna san'atidan o'z siyosiy manfaatlari yo'lida foydalanishni maqsad qilganini yaqqol ko'rish mumkin.

1928-yil aprel oyida Xalq ta'limi komissarligi tarkibida Badiiy adabiyot va san'at bosh boshqarmasi (Glaviskusstvo) tuziladi. Bu bilan sahna san'atiga bog'liq jarayonlarni "inqilobiy, ishlab chiqarishga ko'proq e'tibor qaratib, sinfiy tendensiyalar xususiyatidan kelib chiqib spektakllarda qo'llanayotgan milliy musiqa, raqs, qo'shiqlardan voz kechish, o'z navbatida ulardan tegishli o'rinlarda foydalanib, dolzarb ta'sirga ega spektakllarni yaratish"¹²ga yo'naltirish ko'zda tutildi.

O'zbek davlat teatrining 1927-1928-yil ish faoliyati bo'yicha hisobotida uning vazifa va ehtiyojlari keltiriladi. Unga ko'ra, teatr SSSRning siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlarida butun ittifoq uchun umumiy bo'lgan inqilobiy, mafkuraviy vazifalarni hal etishda O'zbekiston SSRning alohida sharoitlarini har tomonlama hisobga olishi kerakligi qayd etilgan. Shundan kelib chiqib, repertuarlarni to'rt guruhga bo'lingan holda tuzish rejalashtirilgan¹³:

a) kundalik turmush tarzi va tarixiy milliy dramaturgiyaga oid asarlar;

b) Sharq (Eron, Hindiston, Xitoy) va boshqa mamlakat va xalqlarning hayotini aks ettiruvchi pyesalar;

v) harbiy va tiklanish davri muammolarini hal qiluvchi va umumsovet tartibi mavzulariga bag'ishlangan pyesalar;

g) rus va g'arb klassiklarining badiiy qimmatini yuqori bo'lish bilan birga zamonaviy g'oyaviy ahamiyatga ega asarlarni namoyish etish.

Teatrni ishchilarga yaqinlashtirib, ularni san'atga ko'proq jalb etish hamda sahnada namoyish etiladigan asarlarni siyosiy va badiiy tarafdin tekshirib turish maqsadida 1929-yil mavsumida O'zbek davlat drama teatri qoshida Badiiy-siyosiy kengash tuzilgan edi. Kengash tarkibining 50 foizini tashkil etgan ishchilar yig'ilishlarda ishtirok etishlari, asarlarni sahnalashtirish va namoyish etishda yordam berishlari lozim edi. Bu jarayonlarning borishi haqida matbuotda quyidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin: "O'tgan yilgi teatr olimpiadasiga tayyorlanish oldida badiiy sho'ro teatrga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib, u yerda qo'yaturlgan asarlarni belgilab berdi. Lekin ma'muriyat bu qarorlarni mensimasdan

¹⁰ Рахматуллаева Д. Тарих ва театр. – Тошкент, 2022. – Б. 78.

¹¹ O'zMA. P-94-fond, 1-ro'yxat, 168-yig'majild, 17-varaq.

¹² RDASA. 2663-fond, 1-ro'yxat, 105-yig'majild. 42-varaq va orqa tomoni.

¹³ O'zMA. P-94-fond, 1-ro'yxat, 799-yig'majild. 17-20-varaqlar.

repertuardan olinishi lozim bo‘lgan “Farhod Shirin”ni qo‘ydi. Emish “Farhod Shirin” san’at tarafidan yuqori o‘rinda turar ekan!”¹⁴.

Teatrlar faoliyati oldindan tuzilgan, qat’iy rejaga muvofiq olib borilgani arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Masalan, 1929-1930-yillar uchun O‘zbekiston davlat teatrlari qishki mavsum rejasining umumiy ko‘rsatmasiga muvofiq, teatrlarning badiiy va g‘oyaviy faoliyati tomoshabin – ishchilarning madaniy-siyosiy ehtiyojlaridan kelib chiqib qurilishi, shu bilan birga xalqni sotsialistik qurilishining asosiy talablari atrofida uyushtirishga yordam berishi kerakligi qayd etilgan. Shuningdek, madaniy inqilob, mamlakatni sanoatlashtirish, sotsialistik qurilish mavzularida pyesalar sahnalashtirilishi hamda milliy teatrlarda ayollarni ozodlikka chiqarish, dinga qarshi kurash va boshqa shu kabi dolzarb mavzular aks etishi belgilangan.

1929-1930-yil davlat drama teatrining qishki mavsum rejasiga ko‘ra, asosiy e‘tibor yangi sovet dramaturgiyasiga qaratilishi lozim edi. Shu bilan birga repertuar taqsimotida ijtimoiy mazmundagi sovet drama va komediyasi 50 foiz, inqilobiy harakatlar tarixi mavzusiga bag‘ishlangan asarlar 20 foiz, dramaturgiyaning klassik asarlari 10 foiz, dramaturgiyaning zamonaviy-xorijiy asarlari 20 foiz miqdorida taqsimlanib, namoyish etilishi belgilangan¹⁵.

Sovet hukumati ijod qilayotgan sahna xodimlarining kelib chiqishi, ma‘lumoti va partiyaviyligi haqidagi ma‘lumotlarni o‘z hisobotlarida keltirib o‘tganlar. Shuningdek, namoyishga ruxsat etilgan asarlar o‘z mazmun-mohiyatidan kelib chiqib guruhlariga bo‘lingan. Repertuar boshqarmasiga kelib tushgan asarlar o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra “A”, “B”, “V”, “G” harflari bilan belgilangan. Masalan, “A” belgisi ostida g‘oyaviy mazmun jihatidan formal ahamiyatga ega asarlar, “B” harfi bo‘yicha g‘oyaviy to‘laligicha hech qanday qarshiliksiz namoyish etishga loyiq asarlar, “V” harfi qo‘yilgan asarlar esa g‘oyaviy jihatdan yetarlicha mukammal bo‘lmagan, lekin taqiqsiz namoyishga loyiq asarlar hisoblangan. Bunday asarlar qatoriga ko‘ngilochar mazmunga ega pyesalar kiritilgan. Ularning ijtimoiy ahamiyati juda past darajada bo‘lgani bois, bunday asarlar “sovet repertuarimizda “chidasa bo‘ladigan” va shuning uchun uni sahnalashtirishda ijtimoiy ahamiyatini tushirmasdan, yuqori darajada ko‘rsatib berilishi lozim” deb tushunilgan. “G” harfi bilan belgilangan asarlar esa g‘oyaviy maqbul bo‘lgan agitkalar, ya‘ni shaklan va mazmunan oddiy hamda tushunarli tilda yozilgan asarlar bo‘lishi lozim edi.

Bunday repertuar, asosan, siyosiy kompaniyalar va tarixiy kunlarga moslab sahnalashtirilgan asarlarga berilgan.

1930-yili teatr va san’atning boshqa turlariga oid 18 banddan iborat rezolyutsiya loyihasi tayyorlanadi¹⁶. Loyihada soha boshqaruvi yagona rejasining yo‘qligi, kadrlar yetishtirishga e‘tibor sustligi, milliy teatrlarni tashkil etish ishlarining yetarli emasligi, repertuar kamligi, badiiy, siyosiy va

¹⁴ Қосимов. Сиёсий-бadiiy шўро тўрачилиқ қилган эмас // Қизил Ўзбекистон. 1931 йил 22 январ.

¹⁵ O‘zMA. P-94-fond, 5-ro‘yxat, 586-yig‘majild, 22-varaq.

¹⁶ O‘zMA. P-94-fond, 1-ro‘yxat, 739-yig‘majild, 6-7-varaqlar.

pedagogik kengashlar ishining sustligi, soha vakillarining siyosiy yetuk emasligi, Maorif xalq komissarligi tomonidan san’atga, ayniqsa, havaskor ijodkorlarga byudjetdan nomutanosib mablag’ ajratilishi, teatr-sirk binolarining foydalanishga yaroqsizligi, teatr xodimlarining yashash sharoiti yo‘qligi va boshqa qator kamchiliklar keltiriladi.

Haqiqatan ham, O‘zbek davlat musiqali teatri rahbari Muhitdinqori Yoqubovning 1930-yil 20-sentyabrda Xalq maorifi komissarligiga yo‘llagan, hukumatdan yordam so‘rab yozgan ma’lumotidan o‘zbek sahna san’atining ahvoli g‘oyat og‘ir bo‘lganini ko‘rish mumkin. U teatr binosining yo‘qligi, aktyorlar uchun yotoqxon va repetitsiya xonalarining mavjud emasligi kabi holatlar jamoaning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilayotgani, ish sifatiga salbiy ta’sir etayotganini va boshqa muammolarni keltirilgan¹⁷.

Bu davrda teatrlar moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanmagan. Aktyor Razzoq Hamroyev 1935-yilga oid xotiralarda keltirishicha, spektaklni sahnalashtirish uchun sahna kiyimlari yetishmagan, ularni sotib olish yoki tiktirish uchun esa mablag’ yo‘q edi. Bunday vaziyatlardan chiqish uchun zal tomoshabinlar bilan to‘lgach, kerakli to‘n, belbog’, do‘ppilari bor kishilardan yordam so‘ralgan, ular ham o‘z navbatida xursand bo‘lib, rozi bo‘lganlar¹⁸.

Aktyorlarning og‘ir iqtisodiy ahvoli ularning to‘yib ovqat yemasliklarida ham kuzatiladi. Masalan, Oyimxon Shomurotova o‘z xotiralarida: “...bizlar pyesada qo‘shiq aytib yurib, bozordan olingan non, jiydalarni yeb qo‘yardik. Shundan keyin yeyishmasin deb, ularga lampamoy sepib qo‘yadigan bo‘lishdi”¹⁹, – deb yozadi.

Aktyorlarning xotiralarida sahna kiyimlari yetarli bo‘lmagani bois, ba’zi hollarda san’atkorlar o‘z hisoblaridan liboslarni sotib olganlari aks etgan.

Xususan, Qudrat Xo‘jayev o‘ynaydigan roli uchun zarur bo‘lgan kiyim-kechakni bozordan o‘z puliga sotib olganini, keyinchalik teatr ma’muriyati libos haqini to‘laganini qayd etgan. Teatrlarda amortizatsiya, ya’ni artistlarning sahnada ishlatilgan kiyim-boshlari uchun pul to‘lash amaliyoti 1932-yil 1-yanvargacha amalda bo‘lgan²⁰.

O‘zSSR MXK madaniy qurilishining ikkinchi besh yillik rejasini (1933-1937) tayyorlash bo‘yicha asosiy ko‘rsatmalarda Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Xorazm, Qo‘qon, Andijon, Termiz va tuman teatrlarida yirik teatrlar tashkil etilish rejalashtirilgan. Unga ko‘ra, butun san’at tarmog‘i ikkinchi besh yillik reja davomida “to‘liq gullab-yashnagan holda joylashtirilgan va marksistik-lenincha nazariyani o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak”²¹ edi.

¹⁷ O‘zMA R-94-fond, 5-ro‘yxat, 844-yig‘majild, 21-23-varaqlar.

¹⁸ Хамроев Р. Ҳаётим мазмуни. Давр менинг тақдиримда. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 79.

¹⁹ Шомуротова О. Санъат-ҳаётим: давр менинг тақдиримда. – Тошкент: Ф.Фуллом ном. адаб. ва санъат нашриёти. 1984. – Б. 37-38.

²⁰ O‘zMA. R-2062-fond, 12-ro‘yxat, 43-yig‘majild, 43-varaq.

²¹ O‘zMA.R- 94-fond, 5-ro‘yxat, 883-yig‘majild, 22-varaq.

1920–1930-yillarda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan madaniy siyosat O‘zbekistonda teatr va sahna san’ati rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, davlat tomonidan teatrlar tarmog‘ining kengayishi, yangi madaniy muassasalarning tashkil etilishi va teatr jamoalarining turli hududlarda faoliyat olib borishi milliy sahna san’atining institutsional shakllanishiga xizmat qildi. Ikkinchi tomondan esa, partiyaviy-mafkuraviy nazorat ijodiy erkinlikni cheklab, teatr repertuarlarini asosan siyosiy targ‘ibot vositasiga aylantirdi.

Arxiv manbalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, teatrlar faoliyati qat’iy reja va ideologik talablar asosida boshqarilgan, repertuar siyosati esa sotsialistik g‘oyalarni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, san’atkorlarning moddiy-iqtisodiy sharoiti og‘ir bo‘lganiga qaramay, ular milliy sahna san’atining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shganlar.

Umuman olganda, mazkur davr milliy teatr tarixida murakkab va ziddiyatli bosqich bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham milliy sahna san’atining shakllanishiga turtki bergan, hamda uni qat’iy mafkuraviy qoliplarga solgan davr sifatida baholanadi.